

**FAROVON OILA MODELIDA FARZANDLARNING INTELLEKTUAL
VA KREATIV SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING
PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

*Baxromova Muxlisaxon Soyibjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O'zbek tili va
Adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy farovon oila modelida raqamli texnologiyalarning o'rnini va ulardan intellektual vosita sifatida foydalanish metodikasi yoritilgan. Raqamli qurilmalarni shunchaki "vaqt o'g'risi" emas, balki "fikrlash quroli"ga aylantirishda ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom muloqotning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarning yosh xususiyatlariga ko'ra texnik vositalardan foydalanish bosqichlari, internet etikasi masalalari, xalqaro tajribalar hamda psixologik nazariyalar asosida asoslab berilgan.

Tayanch so'z: Farovon oila, raqamli texnologiyalar, intellektual muloqot, vaqt o'g'risi, fikrlash quroli, raqamli gigiyena, netiket (internet etikasi), yaqin rivojlanish zonasi, pedagogik yondashuv, raqamli savodxonlik, ijodiy laboratoriya

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И
ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ДЕТЕЙ В МОДЕЛИ
БЛАГОПОЛУЧНОЙ СЕМЬИ**

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль цифровых технологий в модели современной благополучной семьи и методика их использования в качестве интеллектуального инструмента. Анализируется значимость здорового общения между родителями и детьми в процессе превращения цифровых устройств из «пожирателей времени» в «инструмент мышления». Также на основе международного опыта и психологических теорий обоснованы этапы использования технических средств в соответствии с возрастными особенностями детей, а также вопросы интернет-этики

Ключевые слова: Благополучная семья, цифровые технологии, интеллектуальное общение, пожиратель времени, инструмент мышления, цифровая гигиена, сетевой этикет, зона ближайшего развития, педагогический подход, цифровая грамотность, творческая лаборатория

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO
ENHANCE THE INTELLECTUAL AND CREATIVE POTENTIAL OF
CHILDREN IN THE PROSPEROUS FAMILY MODEL

Abstract: This article examines the role of digital technologies in the model of a modern prosperous family and the methodology of their use as an intellectual tool. It analyzes the importance of healthy communication between parents and children in the process of transforming digital devices from "time-wasters" into a "thinking tool." Furthermore, based on international experience and psychological theories, the stages of using technical means in accordance with the age characteristics of children, as well as issues of internet ethics, are substantiated.

Keywords: Prosperous family, digital technologies, intellectual communication, time stealer, thinking tool, digital hygiene, netiquette, zone of proximal development, pedagogical approach, digital literacy, creative laboratory.

Kirish so'z

Hozirgi davrda farovon oila tushunchasi moddiy barqarorlik bilangina emas, balki ota-ona va farzand o'rtasidagi sifatli muloqot bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalarni to'liq taqiqlash yoki nazoratsiz qo'yib yuborish to'g'ri emas, eng muhim yondashuv — ota-onaning bolaga gadjetlardan ongli foydalanishni o'rgatishidir. To'g'ri yo'naltirilganda smartfon bilim va ijod vositasiga aylanadi. Ota-onaning e'tibori orqali bola texnologiyadan samarali foydalanishni o'rganadi.

Asosiy qism

Bugungi kunda farovon oila tushunchasi faqat iqtisodiy barqarorlik bilan emas, balki ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom intellektual muloqot muhiti bilan ham belgilanadi. Biz shunday davrda yashayapmizki, raqamli texnologiyalarni boladan butunlay to'sib qo'yish yoki uni o'z holiga tashlab qo'yish — tarbiyadagi eng katta xatolardan biri. Asosiy maqsadimiz raqamli texnologiyalarni farzandimiz uchun "vaqt o'g'risi" tushunchasidan "fikrlash quroli" kabi foydali vositaga aylantirishdir.

Ammo savol tug'iladi: qanday qilib oddiy smartfonni qimmatbaho bilim manbaiga aylantirish mumkin? Nima uchun ba'zi oilalarda texnologiya o'zaro uzoqlashishga, boshqalarida esa intellektual yaqinlashishga xizmat qilmoqda? Buning siri — muloqotning sifati va ota-onaning yo'naltiruvchi rolidir. Raqamli muhitda ota-onaning o'rni bugungi kunda uch xil ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Birinchi toifa ota-onalar — "cheklovchilar" bo'lib, ular gadjetlarni faqat jazo yoki taqiq vositasi deb biladilar. Bu yondashuv bolada texnologiyaga nisbatan yashirin qiziqish va isyonkorlikni uyg'otadi. Ikkinchi toifa — "passiv kuzatuvchilar", ular bolaga cheksiz erkinlik berib, jarayonni nazorat qilmaydilar. Bu esa bolaning kontentlar ummonida adashib qolishiga va "vaqt o'g'risi" qurboniga aylanishiga olib keladi. Eng samarali

model — bu "raqamli mentorlik" (ustozlik). Bu modelda ota-ona bolaga smartfonni nafaqat ermak, balki muammolarni hal qilish vositasi sifatida ko'rsatadi. Masalan, bola biror savol bersa, tayyor javob berish o'rniga, "Kel, buni internetdan birga izlab ko'ramiz", deb ma'lumotni saralash va qidirish madaniyatini o'rgatadi. Mana shu jarayon oilada intellektual yaqinlashishni ta'minlovchi asosiy ko'prikdir. Ko'p holatlarda bolalar smartfon ushlaganda YouTube, Instagram yoki shunga o'xshash platformalardagi tayyor kontentlarni cheksiz tomosha qilishga o'rganib qolishadi. Bu axborotni shunchaki iste'mol qilish hamda vaqtni behuda sarflash bo'lib, miyani dangasalikka o'rgatadi. Farovon oila modelida esa ota-ona bolaga raqamli vositalar orqali o'zi qiziqqan soha va mashg'ulotlariga oid yangiliklardan xabardor bo'lishni, vaqtini samarali o'tkazib, yangi bilimlarni egallashni o'rgatishi lozim. Masalan, bolalar TikTok yoki Instagram ilovalari orqali boshqa rassomlarning qanday rasm chizayotganini shunchaki soatlab tomosha qilishidan ko'ra, ota-ona o'sha smartfonda farzandi uchun chizishni o'rgatuvchi ilovani (masalan, Sketchbook yoki Procreate) o'rnatib bersa, bola endi videoni ko'rib, undagi usullarni o'zi ekranda yoki qog'ozda takrorlaydi, ranglar uyg'unligini o'rganadi. **Natijada**, smartfon ijodiy ustaxonaga ya'ni foydali mashg'ulotga aylanadi

Raqamli ijodkorlik faqat rasm chizish bilan cheklanib qolmaydi. Bugungi kunda har bir yosh guruhi uchun o'nlab intellektual rivojlantiruvchi platformalar mavjud:

Mantiqiy fikrlash uchun: Lightbot yoki Kodable kabi o'yinlar bolaga dasturlash algoritmlarini vizual tarzda o'rgatadi. Bola bu yerda shunchaki o'yinchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi muhandis sifatida namoyon bo'ladi.

Tabiiy fanlarni kashf etish: Star Walk ilovasi orqali smartfon kamerasi yordamida tungi osmondagi yulduz turkumlarini o'rganish yoki Google Arts & Culture orqali Luvr muzeyiga virtual sayohat qilish mumkin.

Tadqiqotchilik ko'nikmasi: Bolalar uchun mo'ljallangan Khan Academy Kids yoki National Geographic Kids kabi resurslar bolaning dunyoqarashini kengaytiruvchi sifatli kontent bilan ta'minlaydi. Bunday vositalar ota-ona va bola o'rtasida "Bugun qanday yangi narsa o'rganding?" degan savol atrofida jonli muhokama yarata oladi."

Bundan tashqari, ota-ona bolaga faqat yo'l ko'rsatuvchi emas, balki jarayonda unga sherik ham bo'lishi kerak. Masalan, bola chizgan rasmini ota-onasiga ko'rsatganda, shunchaki "yaxshi" deb qo'ymasdan, uning detallari haqida so'rash, qaysi ranglar ishlatilgani bilan qiziqish boladagi ishtiyoqni yanada oshiradi. Bu orqali oilada sog'lom muloqot muhiti mustahkamlanadi, bola o'zini kerakli va qobiliyatli his qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bunday raqamli ijodkorlik jarayoni bolaning yosh xususiyatlariga qarab turlicha pedagogik yondashuvni talab etadi:

Maktabgacha yosh (3-6 yosh) – "Mantiq va kashfiyot" bosqichi: Bu davrda asosiy urg'u mantiqiy fikrlash va nutqni rivojlantiruvchi interaktiv o'yinlarga qaratiladi. Ota-ona bilan birga bajariladigan raqamli vazifalar bolada ilk intellektual muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kichik maktab yoshi (7-11 yosh) – "Ijod va konstruksiya" bosqichi: Bu bosqichda robototexnika asoslari, vizual dasturlash (masalan, Scratch) va raqamli san'at orqali bolada algoritmik fikrlash hamda yaratuvchanlik qobiliyati shakllanadi.

O'smirlik davri (12+ yosh) – "Tadqiqot va professionalizatsiya" bosqichi: Bu yoshda o'smirlar murakkab loyihalar ustida ishlash, tadqiqotlar o'tkazish va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish madaniyatini egallashlari lozim.

O'smirlik davrida raqamli vositalar orqali yumshoq ko'nikmalar'ni (soft skills) shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'smir bola internetda o'zining kichik blogini yuritishi, dasturlash jamoalarida (masalan, GitHub) hamkorlik qilishi yoki sun'iy intellekt (ChatGPT, Midjourney) yordamida loyihalar ustida ishlashi uning kelajakdagi professional hayoti uchun poydevor bo'ladi. Farovon oilada ota-ona o'smirning bu intilishlarini qo'llab-quvvatlaydi va uni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatadi: **"Bu ma'lumot qanchalik ishonchli?", "Bu loyihani qanday yaxshilash mumkin?"**. Bunday muloqot bolada mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatni his qilish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Xalqaro tadqiqotlar ham bu yondashuvning naqadar muhimligini tasdiqlamoqda. Xususan, YUNISEF hisobotlarida ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar to'g'ri yo'naltirilganda, bolalar uchun sifatli ta'lim olish va kreativ qobiliyatlarini namoyon etishda "teng imkoniyatlar eshigi"ni ochadi. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tadqiqotlariga ko'ra esa, ota-onalari bilan birgalikda raqamli qurilmalardan foydalanadigan va ma'lumotlarni tahlil qiladigan bolalarning mantiqiy fikrlashi, texnologiyadan nazoratsiz foydalanadigan tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlangan.

Ushbu yondashuvni mashhur psixolog olim **Lev Vigotskiy**ning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, ota-onaning smartfondan foydalanishdagi yo'naltiruvchi roli bolaning mustaqil bajara olmaydigan ishlarini (masalan, yangi dasturni o'rganish yoki murakkab masalani yechish) hal qilishiga yordam beradi. Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning miyasi raqamli kontentni passiv qabul qilganda (shunchaki video ko'rganda), miya po'stlog'ining faolligi pasayadi. Aksincha, bola smartfondan interaktiv foydalanganda, ya'ni biror masalani yechganda yoki raqamli chizmani chizayotganda, uning neyron bog'lamalari faol ishlaydi. Farovon oilada ota-ona bolaga aynan faol ishtirokchi bo'lishni o'rgatishi lozim. Bu jarayon bolada nafaqat mantiqiy fikrlashni, balki **"Motorika"** va vizual xotirani ham rivojlantiradi. Shunday qilib, to'g'ri tanlangan

raqamli o'yin yoki ilova bolaning kognitiv funksiyalarini rivojlantiruvchi zamonaviy trenajyorga aylanadi. Britaniyalik tadqiqotchi **Nil Selvin** ta'kidlaganidek:

"Texnologiyaning o'zi bolani aqlli qilmaydi, natija undan qanday foydalanishga bog'liq".

Shu o'rinda bir nozik jihatga e'tibor berish lozim: smartfondan foydali maqsadda foydalanish ham me'yorni talab etadi. Pedagogikada buni "**raqamli gigiyena**" deb atash mumkin. Farovon oilada ota-ona bolaga telefonni taqiqlamaydi, balki u bilan vaqt bo'yicha kelishuv tuzadi. Masalan, 30 daqiqa til o'rganish yoki ijodiy ilovada ishlash, keyin esa albatta jismoniy harakat yoki kitob mutolaasi. Bu bolada mas'uliyat va o'zini boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Farovon oilada raqamli madaniyatni shakllantirish uchun "**Oilaviy raqamli kelishuv**" tizimini joriy etish katta natija beradi. Bu shunchaki qoidalar yig'indisi emas, balki o'zaro hurmat asosidagi kelishuvdir. Masalan:

1. Gadjetsiz hududlar: Oshxona stoli yoki yotoqxona telefonlardan xoli hudud deb belgilanadi. Bu oila a'zolarining bir-biri bilan yuzma-yuz muloqot qilishiga imkon beradi.

2. Birgalikda tomosha qilish (Co-viewing): Haftada kamida bir marta ota-ona va bola ilmiy-ommabop film yoki qisqa metrajli tarbiyaviy videoni birga ko'radi va undagi qahramonlar xatti-harakatini tahlil qiladi.

3. Muvozanat qoidasi: Har bir 30 daqiqalik raqamli mashg'ulotdan so'ng, kamida 15 daqiqa jismoniy harakat yoki ko'z mashqlari bajarilishi shart. Bu bolada o'zini o'zi boshqarish va mas'uliyat hissini rivojlantiradi."

4. Shuningdek, intellektual muloqot faqat bilim olish bilan cheklanib qolmasdan, raqamli dunyoda o'zini tutish madaniyatini —"netiket" (internet etikasini) ham o'z ichiga oladi. Farovon oilada ota-ona farzandiga internet nafaqat ma'lumot maydoni, balki insonlararo muloqot maskani ekanini, u yerda ham o'zaro hurmat va mas'uliyat muhimligini o'rgatadi. Bu esa bolaning nafaqat aqlli, balki ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lib ulg'ayishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, intellektual muloqot muhitida bolaga internetning xavfsiz jihatlarini o'rgatish muhim o'rin tutadi. Ota-ona farzandiga raqamli iz (digital footprint) tushunchasini, ya'ni internetga yuklangan har bir ma'lumot umrbod qolishi mumkinligini tushuntirishi lozim. Shuningdek, begona shaxslar bilan muloqot qilish qoidalari va shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlash kabi kiberxavfsizlik asoslari oiladagi kechki suhbatlarning bir qismiga aylanishi kerak. Bu orqali bola nafaqat bilimli, balki har qanday vaziyatda o'zini himoya qila oladigan hushyor shaxs bo'lib ulg'ayadi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiyalar asrida farovon oilaning asosiy burchi — farzandga raqamli dunyoda "to'g'ri yo'l"ni ko'rsatishdir. Smartfon va planshetlar farzandni chalg'ituvchi vosita emas, balki uning salohiyatini ochadigan laboratoriya

bo'lishi kerak. Ota-onaning raqamli savodxonligi va farzandiga ajratgan e'tibori kelajakda intellektual salohiyati yuqori avlodni shakllantirishning bosh garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates. Bloomsbury Academic.
2. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Capstone.
3. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1-6.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni. (2022). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. UNICEF. (2017). The State of the World's Children: Children in a Digital World. UNICEF Publications.
6. Shomaqsudov, A. va boshqalar. (2021). Raqamli pedagogika asoslari. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
7. G'oziyev, E. E. (2010). Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). Toshkent: Universitet.
8. O.T (2024). Globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlari. Современное образование